Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

## DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022




AVGUST

№43

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 14-ҚИСМ

---

# НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ КОНФЕРЕНЦИЙ: ЧАСТЬ-14

---

# NATIONAL RESEARCHES OF UZBEKISTAN: CONFERENCES SERIES: PART-14

ТОШКЕНТ-2022

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:”** мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

**1. Siytmuratova Ra'no Jumaboyevna**
TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI ............................... 7

## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

# TASVIRIY SAN’AT FANINING TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Siytmuratova Ra’no Jumaboyevna**
Xorazm viloyati Gurlan tumani
30-son maktabning Tasviriy san’at va
chizmachilik fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o’quvchilariga tasviriy san’at fanini o’qitishda uchraydigan muammolar va uni bartaraf etish yo’llari, fanni o’qitishning ta’limiy – tarbiyaviy ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** tasviriy san’at, rasm, asar, bilim, maktab, dars, o’quvchi, rassom.

Tasviriy san’at o’quv predmeti har bir inson uchun zarur bo’lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o’quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qatiy nazar u go’zallikdan bahramand bo’lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko’rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko’pchilik o’quvchilar o’zlarining kelajak hayotlarida ma’lum miqdorda rasm bilan ishlashlariga to’g’ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me’morlar uchungina emas, o’qituvchilar, injenerlar, tibbiyot xodimlari, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o’z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so’z bilan tushuntirib bo’lmaydigan o’z g’oya va fikrlarini tasvirlab ko’rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma’noni anglatmaydi.

Tasviriy san’at fanini o’qitishdan maqsad bolalarda kuzatuvchanlikni o’stirish, borliqni ko’ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma’lumki, tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig’ini ko’z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og’iz va boshqa a’zolari orqali o’zlashtiradi. Bu sifatlar borliqni idrok etish mashg’ulotlarida shuningdek, naturadan tasvirlash, san’atshunoslik asoslari mashg’ulotlarida alohida ahamiyatlidir.

Tasviriy san’atni hamma umum ta’lim maktablarida o’qitilishining foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi. Hozirda umumta’lim maktablarining vazifalardan biri o’quvchilarni turli kasb va hunarlarga yo’naltirish.

K.D. Ushiniskiy shunday degan edi “Rasmni ko’rganda soqov ham tilga kiradi”. Fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yil avval, “Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o’qish yozish kabi bilsalar, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi” degan edi.

Ma’lumki ta’lim –tarbiya jarayonida boshlang’ich sinflar ta’limi alohida bosqich bo’lib, bu davr bola shaxsining eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdan 10-11 yoshgacha bo’lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o’smirlik davrida bola shaxsi ko’rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakkur qilishga o’rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo’adi.

Tasviriy san’at fanining maktab o’quvchilarini o’qitishda eng avvalo tasviriy san’at turlari: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, rassomning ish qurollari, chiziqlar va shakllar, bo’yoqlar, ranglar haqida boshlang’ich ma’lumot berilmaydi. O’quvchilar bu ma’lumotlarni olgandan so’ng rasmni qanday chizish, rasm daftariga qanday joylashtirish kerakligi haqida avval nazariy bilim berib so’ngra uni amaliyotda qo’llash va bundan tashqari chizmoqchi bo’lgan biror narsani kuzatish, o’lchash va to’g’ri joylashtirish kerakligi haqida afsuski ma’lumot berilmaydi. Rassomlar

haqida, uning hayoti va ijodi, yaratgan asarlari haqida o'quvchilarga gapirib o'tilmaydi.

Mamlakatimizning ko'plab maktablarida quyidagi muammolarga duch kelamiz. Tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinflarda o'z mutaxassisi o'tkazmaganligi sababli o'quvchilar tasviriy san'at fani nimani o'rgatadi, ranglar haqida, rasm chizishda nimalarga e'tibor beriladi, palitra nima, o'quv qurollarini yaxshi bilishmaydi, chiziqlar, shakllar, bo'yoqlar, asosiy ranglar, rasm chizishda ketma-ketlikda ya'ni bosqichma-bosqich chizish kerakligi haqida ma'lumotga ega emaslar. O'quvchilarga tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinfdan o'z mutaxassisi o'tgani ma'qul.

Bugungi kunda o'quvchilar rasm chizib bo'yashda faqat qalamlar bilan chegaralanib qolmoqda.

Tasviriy san'at fani haqida ma'lumotlar radio va televidinyalarda berilishi sust.

Maktablarda tasviriy san'at fani haftasiga boshlang'ich sinflardan to yuqori sinflar o'quvchilari uchun 1 soatdan berilgan.

O'quvchilar bilan savol-javob qilinganda tasviriy san'at fanini ko'proq o'tilishini talab qilmoqda.

Tasviriy san'at fanini o'rganish orqali o'quvchilar borliqni idrok etadi va estetik didi o'sadi. Hamda san'atni bilish orqali boshqa fanlarni o'zlashtirishda zamin bo'adi.

Respubilkamizning qator viloyat, shahar, tumanlarida yoshlarga tasviriy sana'tni o'qitish bo'yicha maxsus san'at va musiqa maktablari ochilib, iste'dodli yoshlarga tasviriy sana'atdan chuqurlashtirilgan bilim va malakalar berish keng yo'lga qo'yilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerak tasviriy san'at fanida borliqni idrok etish, o'quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak atrofdagi nafislik va go'zallikni ko'ra bilish, idrok etish natijasida olingan ta'assurotlardan amaliy, badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. San'atshunoslik bo'limi o'quvchi shaxsining estetik rivojiga ko'maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san'at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go'zalliklari bilan tanishtiradi. Badiiy didni shakllantiradi, san'atni sevishga o'rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdirasilov S. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. T., Ilm-Ziyo, 2011.
2. Abdirasilov S, Xasanov M. Rasm o'qitish metodikasi. T., Iqtisod-moliya, 2010.
3. B.N.Oripov Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., Ilm-Ziyo 2005.
4. Internet tarmoqlari.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 14-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000